
Tuman Kengashining navbatdan tashqari sessiyasi o'tkazildi

Sessiyada ishida sektor rahbarlari, tuman hokimining tegishli o'rinbosarlari, kun tartibiga kiritilgan masalaga aloqador davlat va jamoat tashkilotlari rahbarlari hamda ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirok etdi.

Sessiya ishini tuman hokimi Xalq deputatlari tuman Kengashi raisi S. Soliev olib bordi.

Sessiya kun tartibiga ikkita masala kiritildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentini 2022 yil 18 iyul kuni o'tkazgan videoselektorida aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan uzluksiz ta'minlash va bozorlarda narx-navolarni barqarorligini ta'minlash borasida bergan topshiriqlarini tumandagi ijrosi yuzasidan iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish bo'limi boshlig'i o'rinbosari B.Odilovning axboroti.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 24-noyabrdagi 709-sonli qarorining 2-bandi talablari asosida tumanda zaxiraga olinishi rejalashtirilayotgan qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer maydonlarida dehqon xo'jaligi tashkil etish uchun ochiq elektron tanlovga chiqarish bo'yicha tayyorlangan loyishani tasdiqlash yuzasidan tuman hokimining qishloq va suv xujaligi masalalari bo'yicha o'rinbosari N.Mahmudovning axboroti.

Sessiya davomida kun tartibidagi masalalar yuzasidan mutasaddi rahbar va mas'ullarning hisobotlari tinglanib, tegishli qarorlar qabul qilindi.

2022-08-08 14:47:28